



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA O'TISH DAVRI STRATEGIYASINING
XILMA-XILLIGI

Qodirov Farhod Mamarajabovich

Oriental universiteti

Annotatsiya: *Postsovet hududida tez sur'atlarda o'zgarib borgan o'tkir voqea-hodisalar Markaziy Osiyo respublikalaridagi umumiy ahvolga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrga xos bo'lgan noaniq va murakkab sharoitda mintaqa xalqlari o'z taqdirini o'zi belgilashga kirishdilar. Bu davrda mintaqa respublikalarida ishlab chiqarishning keskin pasayishi, inflyatsiya, ishsizlikning ortib borishi va aholi turmush darajasining yomonlashuvi hamda boshqa ko'plab ijtimoiy muammolar avj olgan edi. Bunday sharoitda milliy taraqqiyotning taqdiri ko'p jihatdan siyosiy yetakchilarga bog'liq edi.*

Kalit so'zlar: *inflyatsiya, ishsizlik, ijtimoiy muammolar, inson huquq va erkinliklari, siyosiy- huquqiy, konstitutsiyaviy asos.*

Mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng Markaziy Osiyo davlatlarida milliy davlatchilikni demokratik tamoyillar asosida yaratish va o'z taraqqiyot yo'llarini belgilash bilan bog'liq vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Umumiy tarix va madaniyat, sovetcha o'tmish va davlatchilik an'alariga ega bo'lgan mintaqa respublikalarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, milliy taraqqiyotni amalga oshirishga bo'lgan yondashuvlar turlicha bo'lishiga qaramasdan, mavjud totalitar boshqaruvdagi tartibotdan milliy xususiyatlar e'tiborga olingan demokratik tartibotga "o'tish" strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ustuvor bo'ldi.

1990-yillarning birinchi yarmida yangi mustaqil davlatlar mintaqadagi o'zining geografik joylashuvi, madaniy va tarixiy qadriyat va an'analari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy resurslaridan kelib chiqib, o'z milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishga kirishdilar. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari asta-sekin o'z iqtisodiy va siyosiy ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirdilar⁵⁶.

Mustaqil taraqqiyot yo'lining boshida deyarli barcha Markaziy Osiyo davlatlarida davlat qurilishi va bozor iqtisodiyoti g'oyalari, demokratik qadriyatlar qonuniy jihatdan mustahkamlandi. Barcha davlatlar Konstitutsiyasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt hamda xalqaro huquqning boshqa hujjatlaridagi umum e'tirof etilgan tamoyil va normalar ustuvorligi belgilab qo'yildi.

Mintaqa davlatlarida qabul qilingan qonunlar davlat suvereniteti, huquqiy davlat barpo etish, davlat boshqaruvida hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanishi, davlat rahbari va vakillik organlarining saylanishi kabi fundamental demokratik tamoyillarga, shuningdek, inson huquq va erkinliklari hamda xususiy mulk kabi universal qoidalarga asoslandi.

⁵⁶ Малышева Д.Б. Центральноеазиатский узел мировой политики. – М.: ИМЭМО РАН, 2010. – С. 9.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Aytish kerakki, Markaziy Osiyo davlatlarida milliy taraqqiyot modellarini ishlab chiqish jarayoni bir xilda kechmadi. Bu jarayon O'zbekiston va Qozog'istonda izchillik bilan amalga oshirilgan bo'lsa, Qirg'iziston va Tojikistonda o'ziga xos murakkab kechdi. Turmanistonda esa turman jamiyatining siyosiy ishtirok darajasi sustligi davlat boshqaruvida an'analar ustuvorligiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'ziga xos salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda O'zbekistonda mustaqillikni har tomonlama mustahkamlash siyosati izchil amalga oshirildi, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar uyg'unlashuvi asosida demokratik- huquqiy davlat barpo etish hamda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish zamonaviy davlatchilikning bosh yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston demokratik qadriyatlarni, shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, erkin bozor iqtisodiyotini barpo etishni o'zi uchun eng ustuvor qadriyatlar sifatida tanladi⁵⁷.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat Bu – mustaqil demokratik, huquqiy davlatdir. Bu –

insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir" deb, qayd etgandi⁵⁸.

"Yosh davlatimiz endigina oyoqqa turib kelayotgan qaltis va nozik bir vaziyatda turli tor manfaatlar, mahalliychilik, separatizm va millatchilik kabi salbiy holatlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmadi.

Asosiy qonunimizda umume'tirof etilgan demokratik prinsiplar bilan birga, xalqimizning bebaho qadriyatlari va boy davlatchilik tajribasini ifodalash muhim edi. Aynan Birinchi Prezidentning sa'y-harakatlari bilan Konstitutsiyamizda "Inson va uning qadr-qimmatini" degan ulug' tushuncha markaziy o'ringa qo'yildi" deb, ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev⁵⁹.

Taraqqiyot masalasida tadrijiy usullarni tanlagan mamlakatimiz MDH hududidagi ayrim davlatlarda qo'llanilgan, "shok terapiyasi" deb nomlangan, jamiyat hayotiga rivojlangan G'arb mamlakatlarining tartib- tamoyillarini inqilobiy ravishda, ko'p holatlarda ko'r-ko'rona joriy qilish usulidan ongli ravishda voz kechdi. Mamlakatimizda "Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay" degan g'oya jamiyatni yangilashning bosh tamoyiliga aylandi.

Buning uchun eski sovetcha mafkuraga asoslangan davlatchilik zaminlarini tamoman barbod etish va u bilan bog'liq boshqaruv usullarini o'zgartirish talab etildi. Bunda eng asosiy vazifalar sifatida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan

⁵⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 152.

⁵⁸ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 15-16.

⁵⁹ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish hamda yangi davlatchilikning siyosiy- huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish belgilab olindi⁶⁰.

O‘tish davriga xos bo‘lgan o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish hamda mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta‘minlash kun tartibidagi asosiy masalaga aylangan o‘sha davrda O‘zbekistonda milliy istiqlol g‘oyasini ishlab chiqish, milliy g‘ururini tiklash, xalqimiz ongida mustaqillik g‘oyalarini shakllantirish⁶¹, hokimiyatning konstitutsiyaviy taqsimlanish prinsipiga asoslangan yangi davlatchilikni barpo etish bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Konstitutsiyamizning 11-moddasida O‘zbekistonda davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipi asoslandi. Asosiy qonunning 12-moddasida esa respublikada ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma- xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasida o‘rnatilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi demokratik qoida konstitutsiyaviy mustahkamlandi⁶². Bundan tashqari, 1991-yil 15-fevralda “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, 1996-yil 26-dekabrda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunlar⁶³ qabul qilinishi mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimini barpo etilishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik asosda milliy parlament – Oliy Majlis shakllantirildi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, o‘tish davrida islohotlar bir tekisda ketmaydi, yangi institutsional asoslarni barpo etilishi, jamiyatning yangi shart-sharoitlarga moslashishi bir zumda amalga oshmaydi. Sababi har bir davlatning o‘z xalqining madaniyati, urf-odatlar, hayot tarzidan kelib chiquvchi o‘z mafkurasiga bo‘ladi. Ana shu mafkura asosida jamiyatda siyosiy madaniyat shakllanadi. Bu davrda o‘zgarishlarni amalga oshirish choralari (ayniqsa, iqtisodiy sohada) o‘z vaqtida ko‘rilmaganligi borasida bugungi kunda bildirilayotgan fikrlarga⁶⁴ nisbatan shuni qayd etish mumkinki, “o‘zbek modeli” mustaqillik yillarida milliy taraqqiyot g‘oyalarini o‘zida jamlagan, jamiyat siyosiy madaniyatidan kelib chiquvchi konsepsiya vazifasini o‘tadi, endilikda ham uning besh tamoyili davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish jarayonlarida aks etmoqda. Bugungi kunda asosiy o‘zgarishlar ushbu g‘oyalarni amalga oshirish sur‘ati va natijadorligida ekanligini qayd etish mumkin.

Shunday qilib, “o‘zbek modeli” tamoyillarining joriy etilishi jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishda mustahkam zamin bo‘lib xizmat qildi. 1990-1993-yillarda Qozog‘iston yangi mustaqillik davri talablariga mutlaqo mos kelmaydigan, davlat qurilishiga huquqiy asos bo‘la olmaydigan, sobiq tuzum tamoyillarini aks ettirgan eski Konstitutsiya va ittifoq qonunlari

⁶⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 152-153.

⁶¹ Qarang: Эргашев И., Холбеков А. Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя. - Т.: Академија, 2007.

⁶² O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Т.: O‘zbekiston, 2018. – В. 6.

⁶³ Qarang: 223-XII-сон, 15.02.1991. <https://lex.uz/docs/111825>; 337-I-сон, 26.12.1996. <https://lex.uz/docs/54191>

⁶⁴ Qarang: «Узбекская модель» была неверной политикой – Садык Сафаев. 26.08.2019. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/08/26/uzbek-model/>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



zaminida davlatchilikni qurishni boshlashga majbur bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu davrda nomukammal bo'lsa ham, mustaqillik mohiyatiga ega birinchi avlod qonunchilik hujjatlarini shakllantirish uchun harakatlar amalga oshirildi. Avvaliga Qozog'istonda kommunistik partiya mamlakatning siyosiy sohasidagi mutlaq xukmron mavqeidan mahrum bo'ldi, respublika prezidenti lavozimi joriy qilindi. Shu tariqa eski sovetcha davlat boshqaruvi tizimining asoratlarini butunlay bartaraf etishga bosqichma-bosqich kirishildi. Markaziy davlat boshqaruvi organlari qurilishi va institutsionallashuvi boshlandi.

